



ILM-FAN VA MADANIYATNING BUYUK NAMOYANDASI – MIRZO ULUG'BEK

Yuldosheva Elmira Akmal qizi

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti xorijiy til va adabiyoti ingliz tili 3-
fakultet talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada astronomiya va matematika fanlarining rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shgan, faoliyati davomida ko'plab ilmiy asarlar muallifi hisoblangan ulug' siymo Mirzo Ulug'bek hayoti va ijodi, u yaratgan noyob qo'lyozma asarlari, me'morchilik sohasidagi harakatlari haqida batafsil ma'lumotlar beriladi*

Kalit so'zlar: *Temuriy, ilmiy meros, astronomiya, matematika, rasadxona, me'morchilik, yulduzlar.*

Mirzo Ulug'bek - buyuk o'zbek astronomi, matematigi va davlat arbobi. To'liq ismi- Muhammad Tarag'ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Ko'ragon bo'lib, "xonning kuyovi" degan ma'noni anglatadi. Ulug' mutafakkir 1394- yil 22- mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida, Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohrux Mirzo oilasida dunyoga kelgan. Muhammad Tarag'ay ismining berilishi ham o'z tarixiga ega. Darhaqiqat, ma'lumotlarga ko'ra, 1394- yili temuriy sulolasining asoschisi, Tarag'ayning bobosi Amir Temur Iroqdagi Mordin qal'asini qamal qiladi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning temuriylar tarixi bitilgan mashhur "Zafarnoma" sida keltirilishicha, Temurga nabirasi dunyoga kelgani to'g'risida xabar keltiriladi, keyin munajjimlar bu shahzodaning hukmdor va olim bo'lishini bashorat qilishadi. Amir Temur bu xushxabar tufayli Mordin qamalini to'xtatib, uning xalqiga yuklatilgan tovondan voz kechadi. Shu tariqa, yangi tug'ilgan nabiraga Muhammad Tarag'ay ismi beriladi. Bolaligidan buvisi Bibixonim qo'lida tarbiyalangan Ulug'bek, fan va san'at turlariga, ayniqsa, matematika va astronomiya sohalariga juda ham qiziqqan. Bundan tashqari, xotirasi kuchliligi bilan arab va fors tillarini puxta o'rganib, turk she'riyatidan ham yaxshigina xabardor bo'lgan.

Ulug'bek ilm-fan olamida o'z o'rnini topa olgan buyuk astronom sifatida ma'lum va mashhurdir. Jumladan, u yaratgan ko'plab asarlar keyingi yosh avlodlarga eng muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" deb ataladigan astronomik jadval u yaratgan noyob asarlardan biri sanaladi. Astronomiyadan tashqari, temuriy hukmdor boshqa fanlarda ham qalam tebratgan. Xususan:

1. "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola" - matematikaga oid;
2. "Risolayi Ulug'bek" - yulduzlarga bag'ishlangan;
3. "Tarixi arba' ulus (To'rt ulus tarixi)" - tarixga oid.



Yuqoridagi to'rt ilmiy asar bizga meros bo'lib qolgan. Ayniqsa, matematik olim uchburchaklar bilimida soya va tanjont qiymatlarini sakkiz o'nlik kasr va sakkiz xona ash' oryagacha aniq belgilab bergani, haqiqatan ham, buyuklikning nishonasidir. Mirzo Ulug'bek davrida ko'pgina asarlar arab va fors tillaridan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan va o'zi tashkil etgan boy kutubxonada 1500 dan ortiq bebaho kitoblar bo'lgan. Manbalarga ko'ra, hozirgi kunda "Ziji" asarining 100 ha yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxalari mavjud. Asarning to'liq holdagi tarjimasi 1994- yil Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan ilk marotaba rus tilida nashr etilgan. Xuddi shu davrda olimning "Tarixi arba' ulus" nomli asari ham Toshkentda o'zbek tilida nashrdan chiqariladi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida mashhur samarqandlik xattot Azizullo tomonidan Mirzo Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoniy" si saqlanmoqda. Bu qo'lyozma sahifalarida olimning tuzatishlari ham bor. Ushbu tuzatishlar uning dastxati va yozuvi haqida muhim ma'lumotlarni berib o'tadi.

Me'morchilik sohasida ham Ulug'bek ko'zga ko'rinarli ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'lgan. 1417-1420- yillarda Samarqandda bir madrasa qurdirgan va u Registonda barpo etilgan birinchi me'moriy ansamblga aylangan. Ushbu madrasa qurilishi uchun islom olamining ko'plab astronom hamda matematiklari taklif etilgan.

Bundan tashqari, yana ikkita madrasa Buxoro va G'ijduvon shaharlarida qad rostlagan bo'lib, ular o'sha damda universitet vazifasini ham o'tagan. Buxoroda barpo etilgan madrasa peshtoqida "Ilmga intilish har bir musulmon uchun farzdir" degan yozuv saqlanib qolganligi, Ulug'bekning ilmni yuksaltirishdagi keyingi avlodga bo'lgan da'vati deb olsak bo'ladi. Ulug'bek rasadxonasi- Samarqand shahrining eng diqqatga sazovor obidalaridan biri hisoblanib, 15- asr me'morchiligining noyob namunasidir. 1428-1429- yillarda Ulug'bek farmoyishi bilan Cho'ponota tepaligida ulkan silindr shaklida rasadxona bunyod etilgan. Shoh va shoir Zahiriddin Boburning "Boburnoma" asarida yozilishicha, balandligi 30,4 metrdan iborat 3 qavatli bino qurilgan bo'lib, o'z ichiga o'ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblarni olgan. Bu katta asboblar yordamida quyosh, oy, sayyora va yulduzlarni katta aniqlikda o'rganish mumkin bo'lgan. Shuningdek, rasadxonada kutubxona ham bor bo'lib, uning qurilishi va faoliyati bir qator mashhur olimlarning - G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog'liq.

Mamlakatimizda bu buyuk siymoga bo'lgan e'tibor nihoyatda oshdi. Adabiyot sohasida yozuvchi Maqsud Shayxzoda 1964- yilda "Mirzo Ulug'bek" pyesasini, Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi"(1970-1973) romanini, yana bir mashhur yozuvchi va shoir Xurshid Davron "Sohibqironning nabirasi" "qissasi," "Algul yulduzi yoki Ulug'bekning so'nggi kuni" nomli pyesasini yaratdi. Bu qimmatbaho asarlar Mirzo Ulug'bekning o'tmish hayoti haqida batafsil hikoya qiladi. Shuningdek, 1970- yillarda Odil Yoqubov romani asosida ko'p qismli "Ulug'bek xazinasi" nomli videofilm suratga olingan, 1966- yilda esa "Ulug'bek yulduzi" nomi ostida film yaratildi. Bundan tashqari,



olim yurtdoshimizga boʻlgan yuksak ehtirom va hurmat sifatida 1994- yil "Mirzo Ulugʻbek" yili deb eʼlon qilindi. Oʻzbekiston Milliy universiteti Ulugʻbek nomi bilan ataldi. Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlardagi koʻplab xiyobon va koʻchalarga Mirzo Ulugʻbek nomi berilgan. Nafaqat mamlakatimizda, balki Osiyoning koʻplab boshqa davlatlarida ham ulugʻ zot hurmat va eʼtiborda. Darhaqiqat, Qozogʻistonning Olmaota shahrida Ulugʻbek nomli koʻcha borligi, Riga sharidagi Kronvalda bogʻida Mirzo Ulugʻbekning haykalining oʻrnatilganligi unga boʻlgan eʼtirofdan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [1.https://oz.sputniknews.uz/20230306/mirzo-ulugʻbek-haqida](https://oz.sputniknews.uz/20230306/mirzo-ulugʻbek-haqida)
2. [2.https://uz.m.wikipedia.org/wiki](https://uz.m.wikipedia.org/wiki)